



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2026
1-сон



SERVIS

ILMIY-AMALIY JURNAL 2026 yil, 1-soni

Muassis: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 2008 yil 31 dekabrda
0561-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

O‘zR OAK Riyosatining 19.03.2017 y., 239/5-sonli qarori bilan e‘tirof etilgan

Tahririyat a‘zolari:

Mas‘ul kotib:

i.f.d., prof. M.Q.Pardaev

Muharrirlar:

i.f.d., dotsent F.A.Safarov
PhD, dotsent I.M.Pardaeva
PhD, I.Sh.Ernazarova

Texnik muharrir:

katta o‘qituvchi F.O.O‘roqov

Korrektor:

PhD, dotsent v.b.
T.I.Yahyoyev

Sahifalovchi:

PhD, dotsent v.b.
H.N.Ochilova

1 yilda 4 marotaba
chop etiladi.

**O‘zbekiston hududida
tarqatiladi.**

Tahririyat manzili:

140100, Samarqand shahar,
Amir Temur ko‘chasi, 9-uy,

tel.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

faks: +998(366)231-12-53
el.pochta:

samisiservis@mail.ru

Tahrir hay‘ati raisi:

M.E.Po‘latov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori,
i.f.d., professor

Tahrir hay‘ati raisi o‘rinbosari:

M.Q.Pardayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Tahrir hay‘ati a‘zolari:

M.M.Muxammedov – SamISI professori, iqtisod fanlari
doktori

D.R.Zaynalov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

O.M.Murtazayev – TDIUSF direktori, iqtisod fanlari doktori,
professor

M.R.Boltabayev – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

R.X.Ergashev – QarMII professori, iqtisod fanlari doktori

B.K.G‘oibnazarov – iqtisod fanlari doktori, professor

I.S.To‘xliyev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

K.B.Urazov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Q.J.Mirzayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

B.I.Isroilov – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

G.M.Shodiyeva – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

S.N.Toshnazarov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

R.N.Normaxmatov – SamISI professori, texnika fanlari doktori

A.Bektemirov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

O.M.Pardayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

M.T.Alimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Z.Dj.Adilova – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

Sh.O.Quvondiqov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

L.N.Xalikova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

F.A.Safarov – SamISI dotsenti, iqtisod fanlari doktori

A.M.Karimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

I.B.Mattiyev – SamISI professori, pedagogika fanlari doktori

B.F.Boronov – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

A.N.Xoliqulov – SamISI professori, iqtisod fanlari nomzodi

X.A.Raximov – SamISI dotsenti, PhD

S.A.Babanazarova – SamISI dotsenti, PhD

H.N.Ochilova – SamISI dotsenti v.b., PhD

I.R.Berdikulova – SamISI dotsenti v.b., PhD

A.Q.G‘apparov – SamISI dotsenti v.b., PhD

MUNDARIJA:

NAZARIYA VA METODOLOGIYA	
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев, Озода Мамаюнусова Пардаева Янги Ўзбекистоннинг бойлиги инсон ресурслари билан ўлчанади	5
Сарвар Аюбовна Исхакова Ўзбекистонда хизматлар соҳасини модернизация ва диверсификация қилишнинг асосий йўналишлари	13
Anvar Nematovich Xoliqulov Servis sifati tushunchasining nazariy talqini	18
Зухриддин Санжар ўғли Рашидов Корхона самарадорлигини оширишни меҳнат ресурслари ҳаракати билан боғланишининг ўзига хос хусусиятлари	21
Mexrangiz Axtam qizi Mullayeva Xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat yurituvchi korxonalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning ustuvor yo‘nalishlari	25
SANOAT VA QISHLOQ XO‘JALIGI	
Фарида Абдухалимовна Ахмеджанова Роль эстетических показателей тканей в формировании потребительских и эксплуатационных свойств изделий	31
Рузбой Нормакматов, Акрам Гафуров, Баҳора Тўлқинова В ₁ - витамин (тиамин): ва унинг инсон соғлигини сақлашдаги аҳамияти	34
Junaydillo Sadiyevich Fayziyev Atrof-muhitga chiqarilayotgan sut zardobi tarkibidagi zardob oqsillari miqdorini kamaytirish texnologiyasi	37
Ro‘ziboy Normaxmatov, Zakirjon Erkinovich Mamarasulov, Ravshan Pirmatov Askorbin kislotasi (C vitamini) va uning ahamiyati	41
TADBIRKORLIK, MEHNAT, BANDLIK VA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH	
Феруз Нематуллаевич Абилов Худудларда камбағалликни қисқартиришнинг инновацион йўналишлари	44
XIZMAT KO‘RSATISH VA SERVIS	
Обид Мамаюнусович Пардаев Коммунал хизматларни ривожлантиришнинг маъмурий-бошқарув ва инфратузилмавий институтционал асосларини такомиллаштириш	50
Акмал Алимжонович Салимов Ривожланган мамлакатларнинг олий таълим хизматлари сифатини ошириш тажрибаларидан Ўзбекистонда фойдаланиш имкониятлари	56
Firuz Kurbanovna Achilova Mintaqada xizmatlar sektorining rivojlanishining zamonaviy modellari	61
Нажмиддин Раҳматуллаевич Абдувоҳидов Хизмат кўрсатиш соҳасида сохта иқтисодиётнинг айрим кўринишлари ва уни бартараф этишнинг амалий йўналишлари	66
Xusnora Dilmurod qizi Umarova Orolbo‘yi mintaqasida xizmat ko‘rsatish sohasini innovatsion boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	71
Jahongir Aktamovich Haydarov Logistikada transport xizmatlari raqobatbardoshligini baholashning kompleks yondashuvlari	75

UDK 332.1:338.46

Firuz Kurbanovna Achilova – Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

MINTAQADA XIZMATLAR SEKTORINING RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY MODELLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintaqada xizmatlar sektorining rivojlanishining zamonaviy modellarining qo‘llash imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, Qashqadaryo viloyati mintaqada xizmatlar sektorining rivojlanishining zamonaviy modellaridan samarali foydalanish yuzasidan xulosalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: mintaqqa, xizmat, xizmatlar sektori, model, mahsulot, tadqiqot, iqtisodiyot.

Kirish. Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, iqtisodiyotning tarkibiy transformatsiyasi hamda raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi sharoitida xizmatlar sektori milliy va mintaqaviy iqtisodiyotning eng dinamik rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylanmoqda. Xizmatlar sohasi nafaqat yalpi hududiy mahsulot tarkibida yuqori ulushni egallashi, balki bandlikni ta‘minlash, aholi daromadlarini oshirish, tadbirkorlik muhitini shakllantirish va investitsion jozibadorlikni kuchaytirishda ham muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, hududlar kesimida xizmatlar sektorining rivojlanish darajasi mintaqaning iqtisodiy salohiyati va raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy mezonlardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda xizmatlar sektorining rivojlanishi an‘anaviy ekstensiv yondashuvlardan innovatsion, raqamli va integratsiyalashgan modellarga o‘tishni taqozo etadi. Xizmatlar ko‘rsatish jarayonlarida raqamlashtirish, raqamli iqtisodiyot elementlari, klasterlashuv, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari hamda yashil iqtisodiyot tamoyillarining qo‘llanilishi yangi rivojlanish modelini shakllantirmoqda. Bu esa mintaqaviy iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, tarkibiy muvozanatni ta‘minlash va barqaror iqtisodiy o‘sishga erishishda xizmatlar sektorining rolini yanada oshirmoqda.

Mintaqalarda xizmatlar sektorini rivojlantirishning zamonaviy modellari hududiy resurs salohiyati, demografik omillar, infratuzilma darajasi va institutsional muhit bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bois mazkur sohani rivojlantirishda yagona universal modeldan ko‘ra, hududiy xususiyatlarni inobatga olgan differensial yondashuvni qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi sharoitida xizmatlar sektorining yangi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi mintaqalarda xizmatlar sektorini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish, zamonaviy rivojlanish modellarini tizimli tahlil qilish hamda ularni hududiy iqtisodiyotga moslashtirish zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqotning maqsadi – mintaqada xizmatlar sektorining rivojlanishining zamonaviy modellarini ilmiy jihatdan asoslash va ularni samarali joriy etish bo‘yicha taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mintaqaviy iqtisodiyot va xizmatlar sektorini rivojlantirish masalalari iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo‘lib, ularning asosiy e‘tibori sektoral struktura transformatsiyasi, iqtisodiy o‘sish va barqaror rivojlanish mezonlariga qaratilgan. B.M.Nelson, J.M.Cohen va boshqalar an‘anaviy iqtisodiy nazariyadagi klassik tadqiqotlar xizmatlar sektorini yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi, bandlik va sektorlararo almashinuv orqali tahlil etadi. Xizmatlar sohasining iqtisodiyotdagi rolini umumiy iqtisodiy rivojlanish kontekstida o‘rganish xizmatlar bozorining dinamik xususiyatlari, uning ichki segmentlari va ularning innovatsion jarayonlarga integratsiyasi kabi jihatlarni aniqlashga yo‘naltirilgan.

Keyingi o‘n yilliklar ichida xizmatlar sektorining xususiyatlarini tahlil etishda fanlararo integratsiyalashgan yondashuv jadal rivojlandi. Xususan, xizmatlar iqtisodiyoti kontseptsiyasi xizmatlar bozorining raqamlashtirilishi, intellektual kapital va infratuzilma resurslari orqali o‘sish modellari bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatdi. Porterning klaster nazariyasi mintaqaviy xizmatlar infratuzilmasini tahlil qilishda katta ahamiyat kasb etdi, chunki u innovatsion tarmoqlar va jonli bozorlarga asoslangan raqobatbardosh ustunliklar hosil bo‘lishini ta‘kidlaydi.

So‘nggi ilmiy tadqiqotlarda xizmatlar sektorining barqaror rivojlanishi konsepsiyasi

alohida urg‘u bilan ko‘rib chiqilmoqda. Barqaror rivojlanish tamoyillari xizmatlar bozorida iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy omillarni uyg‘unlashtirishni talab qiladi. Misol uchun, J. Elkingtonning “Uch yo‘nalishli samaradorlik” modeli xizmatlar sektorining yashil iqtisodiyot bilan integratsiyasi bo‘yicha tadqiqotlar raqamli va ekologik innovatsiyalarning iqtisodiy rentabelligiga ta‘sirini yoritadi.

Mintaqaviy tadqiqotlar yo‘nalishidagi adabiyotlar mintaqaviy sharoitlarda xizmatlar sektorining o‘shish modellari va strategiyalarini tahlil etadi. Hududiy iqtisodiyot nazariyasi bo‘yicha Alyona Ilyina, Piter Nigrini kabi tadqiqotchilar hududlararo farqlar, resurs taqsimoti va institutlararo integratsiya nuqtai nazaridan xizmatlar sektorining barqaror o‘shishi mexanizmlarini ko‘rib chiqqan. Raqamli transformatsiya kontseptsiyasi xizmatlar sektorini platforma iqtisodiyoti, ma‘lumotga asoslangan xizmatlar va innovatsion startaplar orqali qayta shakllanishi jarayonlarini yoritadi. Bu yondashuvlar xizmatlar bozorining raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish va iste‘mol bozorlarini samarali o‘zaro aloqadorligini ta‘minlash kabi jarayonlarni modellashtirish imkonini beradi. Ilgari olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, xizmatlar sektorini modellashtirishda mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda innovatsion va integratsiyalashgan yondashuvlarni qo‘llash zaruratini ta‘kidlaydi. Shu bilan birga, ko‘plab adabiyotlarda xizmatlar sektorining rivojlanishini baholashda statistik ko‘rsatkichlar va komparativ tahlil metodlari ustunlik qilmoqda, biroq ko‘p hollarda kompleks indikatorlar to‘plami yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi qayd etilgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy ilmiy tadqiqotlar xizmatlar sektorini tahlil qilishda klassik iqtisodiy yondashuvlar bilan bir qatorda innovatsion, barqaror va raqamli modellarni integratsiya qilishga katta e‘tibor qaratmoqda. Shu nuqtai nazardan, mintaqa kontekstida xizmatlar sektorining rivojlanishining zamonaviy modellari bo‘yicha chuqur, tizimli va empirik asoslangan tadqiqotlar olib borish dolzarb ilmiy vazifa sifatida qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda statistik tahlil usullari muhim o‘rin egalladi. Xususan, dinamik qatorlar tahlili orqali xizmatlar sektorining so‘nggi yillardagi o‘shish sur‘atlari, tarkibiy siljishlari va rivojlanish tendensiyalari aniqlashtirildi. Shuningdek, taqqoslama tahlil asosida turli mintaqalar kesimida xizmatlar sektorining rivojlanish darajasi solishtirildi. Bu yondashuv hududlar o‘rtasidagi differensial xususiyatlarni aniqlash hamda zamonaviy rivojlanish modelini shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, induksiya va deduksiya, mantiqiy umumlashtirish usullaridan ham foydalanildi. Ushbu usullar yordamida xizmatlar sektorining rivojlanish modellari konseptual jihatdan asoslandi hamda ularning mintaqaviy iqtisodiyotga moslashtirilgan varianti taklif etildi.

Tahlil va natijalar. Ma‘lumki, xizmatlar tovarlardan farqli o‘laroq bevosita iste‘molchiga taqdim etiladigan amaliy yordamlar majmuasi sifatida ularning asosiy maqsadi inson yoki biznes ehtiyojlarini qondirishga qaratiladi. Xizmatlar iqtisodiyoti bugungi kunda raqamli, innovatsion va uzluksiz o‘sayotgan iqtisodiy komponent bo‘lib, u global o‘shishda markaziy rol o‘ynaydi. Xizmatlar sektori an‘anaviy chegaralarni yo‘qotmoqda. Ya‘ni, sanoat, savdo, transport, sog‘liqni saqlash va ta‘lim kabi yo‘nalishlar bir-biriga integratsiya qilinmoqda. Ushbu jarayon servis-industrial iqtisodiyotning shakllanishini tezlashtirib, xizmatlarni yanada murakkab va ko‘p qirrali qiladi. Bu borada xizmat ko‘rsatish sohasi zamonaviy global iqtisodiyotda tobora mustahkam o‘rin egallab bormoqda.

Tadqiqotlarda keltirilishicha, iqtisodiyotdagi asosiy tendensiyalar qatoriga xizmat ko‘rsatish ishlab chiqarishning o‘shishi, xizmat ko‘rsatish daromadlarining oshishi, xizmat ko‘rsatish sohasida raqobatning kuchayishi, xizmat ko‘rsatish sohasida bandlikning oshishi va xizmat ko‘rsatish importi va eksportining ulushining ortishi kiradi [1]. Bu borada xizmatlar sohasi rivojlanishida mintaqaviy va tarmoq nomutanosibliklarini miqdoriy baholash tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Yana bir tadqiqot ishining asosiy vazifalari esa xizmat ko‘rsatish sohasining zamonaviy iqtisodiyotdagi roli to‘g‘risida to‘liqroq ma‘lumot berish, uni nazariy ma‘lumotlar va haqiqiy raqamlar bilan tasvirlash va xizmat ko‘rsatish sohasining o‘zgarganligi va iqtisodiyotga o‘zgarishlar kiritganligini o‘rganishga qaratilgan [2]. Ular qatorida xizmatlar sohasining rivojiga aholining makonga oid taqsimoti va iqtisodiy faoliyatiga ta‘sir ko‘rsatadi.

Mintaqada xizmatlar sektorining rivojlanishining zamonaviy modellari o‘rganish

yuzasidan tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, taklif etilgan uch sektorli modelda iqtisodiy faoliyat birlamchi (resurslar qazib olish), ikkilamchi (sanoat) va xizmatlar sektori kabi uchta bo‘limga bo‘linadi. Mazkur model bo‘yicha xizmatlar sektori iqtisodiyotning eng yuqori rivojlangan bosqichida asosiy joyni egallab, ishlab chiqarish bo‘limidan farqli ravishda xizmatlarni yaratish asosida o‘sadi. Bu borada mintaqaviy tafovutlarni baholashda oddiy modeldan mintaqadagi statistik vaziyatni tahlil qilishda foydalaniladi [3]. Bu boradagi raqamli transformatsiya modeli xizmatlar sektorida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali xizmatlarning soddalashtirilgan va tezkor tizimini yaratishga qaratiladi. Ushbu modelning noyob jihati shundaki, an‘anaviy xizmatlar (savdo, transport va sayyohlik) bevosita raqamli xizmatlar (e-savdo, telemeditsina va onlayn konsultatsiyalar) bilan uzviy bog‘lanib, ular birlashtirilgan iqtisodiyot tarkibiga kiradi.

Yana bir tadqiqot esa iste‘molning oqilona darajasini, mumkin bo‘lgan resurslar cheklovlarini va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega koeffitsientlarni aniqlash imkonini beruvchi xizmat ko‘rsatish sohasining optimallashtirilgan va dinamik modelini ishlab chiqishga bag‘ishlanadi [4]. Ushbu modellarning xususiyatlari ma‘lumotlar asosida samarali qaror qabul qilish, raqamli xizmatlar ekotizimini yaratish va innovatsion xizmatlarni modul tarzda tatbiq etishga asoslanadi. Bu model orqali xususiy xizmat ko‘rsatish, turizm, transport va moliyaviy xizmatlar katta o‘shishga erishadi. Bank, sug‘urta, lizing, konsalting va boshqa turdagi bozor xizmatlari jadal rivojlanmoqda. Bu esa mamlakatda xususiy sektor va kichik biznesni rivojlantirishga imkon beradi [5]. Ekotizim asosidagi modelda esa xizmatlar sektori birlashtirilgan raqamli ekotizim sifatida qaraladi. Unda turli xizmatlar (savdo, turizm, moliya va sog‘liqni saqlash) o‘zaro bog‘liq tizimda hamkorlik qiladi. Ekotizim modellarida mijoz, xizmat ko‘rsatuvchi subyekt va texnologik platformalar o‘rtasida interaktiv aloqalar mavjud bo‘ladi. Shu bois, ushbu model ko‘pincha ma‘lumotlarga asoslangan xizmatlar uchun qo‘llanadi.

Olib borilgan boshqa yana bir tadqiqotlarga asosan, davlat xizmati sohasini rivojlantirishning modellashtirish asoslari, hozirgi dolzarb masalalardan biri bo‘lgan innovatsion rivojlanishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlari va uni takomillashtirishga qaratilgan bir qator olimlarning fikrlari bayon etiladi [6]. Ya‘ni, unda davlat xizmatining hududiy ixtisoslashuvi tuzilishi ko‘rsatilgan. Ular bilan birgalikda strategik innovatsion modellar sifatida quyidagi modellar ham qo‘llaniladi:

- “servicification” modeli. Bu model ishlab chiqarish va xizmatlar o‘rtasida to‘liq integratsiyalangan yondashuvni tasvirlaydi. Masalan, sanoat korxonalarini o‘z mahsulotlari bilan birga texnik xizmat, qo‘llab-quvvatlash va onlayn monitoring kabi xizmat paketlarini ham taklif qiladilar. Bu esa trend xizmatlar sektorini yanada kengaytirib, iqtisodiyotdagi qiymat zanjirining uzviy qismiga aylanadi.

- innovatsion xizmatlarning iqtisodiy modeli. Bu model xizmatlar sektorini iqtisodiy o‘shishning strategik manbai sifatida qabul qiladi. Masalan, xizmatlar sektori mintaqa yalpi hududiy mahsulotning o‘shishiga sezilarli hissa qo‘shadi. Ular tarkibiga savdo, transport va moliyaviy xizmatlar kabilar kiradi. Bu model bo‘yicha xizmatlar iqtisodiyotning barqaror o‘shishi va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashga hissa qo‘shadi.

Yana bir olib borilgan tadqiqot obyekti esa mintaqaviy xizmat ko‘rsatish sohasining innovatsion biznes modelini tadqiq qilishga qaratiladi [7]. Ushbu model boshqaruv muammosini tizimlashtiradi. Bu borada xizmatlar sohasining zamonaviy modeli raqamli xizmatlar bo‘lib, ularda mobil ilovalar va platformalar asosida xizmat yetkazib beriladi. Bu esa xizmatlar foydalanuvchi tajribasini oshirib, xizmatlar salohiyatini yanada kengaytiradi. Zarur kompetentsiyalarni egallash sohasida O‘zbekiston xizmatlarning tegishli kichik tarmoqlarida ishlash uchun zarur bo‘lgan asosiy ko‘nikma va bilimlarni rivojlantirishga ko‘proq sarmoya kiritishi kerak [8].

Ushbu xizmatlar sektorining strategik rivojlanish modeli esa ko‘plab iqtisodiy va boshqaruv jihatlarini birlashtiradi. Bu esa iqtisodiy boshqaruvning eng muhim qismini tashkil etadi. Ushbu sohani o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlarning aksariyati milliy ilmiy maktabga xos bo‘lgan strategik menejmentga katta hajmli taqvim yondashuvining an‘anaviy jihatida amalga oshiriladi. Bunday yondashuv soxta strategik mezonlarni shakllantiradi. Xizmatlar sektori ushbu sharoitda alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Chunki, ko‘plab mamlakatlarda xizmatlarni rivojlantirish modelini jalb qilish uchun ijtimoiy ishlab chiqarish tuzilmasi postindustrial

iqtisodiyot turiga o‘tishni taklif qiladi. Bu holatda xizmatlar sektori iqtisodiyotning tizimni qo‘llab-quvvatlovchi sektori bo‘lib hisoblanadi.

Bugungi kunda yangi texnologiyalar xizmat xizmatlarini samarador, tezkor va qo‘shimcha qiymat yaratadigan yo‘nalishga aylantiradi. Ushbu texnologiyalar orqali turizm, sog‘liqni saqlash, logistika kabi xizmatlar yanada raqobatbardosh bo‘ladi. Iste‘molchi talabining raqamli va sifatli xizmatlarga o‘sishi xizmatlar sektorida innovatsion yondashuvlarni talab qiladi. Raqamlashtirish va mijoz tajribasini shaxsiylashtirish bevosita modelning asosiy unsuri bo‘lib qaraladi.

Ayniqsa, mintaqaviy rivojlanishning zamonaviy modellari sifatida quyidagi modellar tadqiq qilinadi:

- xizmatlarni klasterlashtirish modeli. Bu modelda xizmatlar sektorining rivojlanishi uchun geografik, funksional va ijtimoiy bog‘langan xizmat klasterlari yaratiladi. Masalan, turizm, transport va logistika sektorlari birgalikda mintaqaviy xizmat klasterini hosil qiladi.

- raqamli ekotizim modeli. Xizmatlar sektorining barcha subyektlari (korxonalar, mijozlar va davlat organlari) raqamli platformalar orqali uzviy bog‘lanadi. Bu tarzda xizmatlar ekotizimi xizmatlarni birlashtirib, mijoz tajribasini oshiradi.

Shunday ekan, innovatsion xizmatlar modellari mintaqaviy xizmatlar sektorini yanada dinamik, raqamli va integratsiyalashgan tizimga aylantiradi. Ushbu jarayon sektorning xalq xo‘jaligidagi ulushini oshiradi, yangi ish o‘rinlari yaratadi va raqobatbardoshlikni mustahkamlaydi.

Manbalar asosida tuzilgan ilmiy asos sifatida turli sektorli model iqtisodiyot bo‘yicha xizmatlar sektorining o‘shish bosqichlarini tasvirlaydi. Innovatsion xizmatlar va raqamli transformatsiya xizmatlar sohasida strategik yo‘nalishlarni belgilaydi. Bu borada mintaqada xizmatlar sektorining rivojlanishining zamonaviy modellari mazmunini hududning quyidagi iqtisodiy xususiyatlari aks ettiradi (1-jadval).

1-jadval

Qashqadaryo viloyatining hududiy iqtisodiy xususiyatlari tavsifi¹

Hududiy omillar	Xususiyatlari	Bevosita xizmatlarga ta’siri
Agrar-sanoat hududi	Qishloq xo‘jaligi va gaz-neft resurslari ustuvordir	Agroservis, logistika va moliyaviy xizmatlarga talab yuqori bo‘ladi
Demografik o‘shish	Yoshlar ulushi yuqori bo‘ladi	Ta’lim, IT va onlayn xizmatlarga talab ortadi
Turizm salohiyati	Shahrisabz va madaniy meros obyektlari mavjud	Turizm va mehmonxona xizmatlari rivojlanadi
Yirik qishloq aholisi ulushi	Infratuzilmada nomutanosiblik seziladi	Mobil xizmatlar va telexizmatlarga ehtiyoj

Ushbu 1-jadvalga asosan, Qashqadaryo viloyatida xizmatlar sektorining hududiy xususiyatlarini agrar-sanoat yo‘nalishning ustuvorligi, demografik o‘shishning yuqoriligi, turizm salohiyatining mavjudligi va qishloq hududlarning ulushi kattaligi ko‘rsatadi. Ushbu omillar xizmatlar sektorini klasterlashgan raqamli ekotizim asosida rivojlantirishni talab qiladi.

Qashqadaryo viloyatining hududiy iqtisodiy xususiyatlari quyidagicha izohlanadi:

- viloyat agrar-sanoat modeliga ega bo‘lsa-da, ammo xizmatlar ulushi o‘shish tendensiyasiga ega;

- tabiiy resurslar sanoat barqarorligini ta’minlaydi;
- yosh mehnat resurslari innovatsion xizmatlar uchun baza yaratadi;
- turizm va logistika sohalarida katta zaxira mavjud;
- raqamli transformatsiya orqali iqtisodiy diversifikatsiyani kuchaytirish mumkin.

Shunday ekan, Qashqadaryo viloyati hududiy iqtisodiyoti resurslarga boy, mehnat zaxirasi yetarli va diversifikatsiya imkoniyati yuqori bo‘lgan hudud bo‘lib hisoblanadi. Bu borada kelgusida xizmatlar sektorini raqamlashtirish, agrosanoat klasterlarini kengaytirish va turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish orqali viloyat yalpi hududiy mahsulotini sezilarli darajada

¹ Muallif ishlanmasi.

oshirish mumkin.

Shulardan kelib chiqib, Qashqadaryo viloyatida xizmatlar sektorining hududiy xususiyatlari, ustuvor xizmat turlari va iste'molchilar ehtiyojlarini hisobga olgan holda innovatsion va raqamli ehtiyojlar modelidan foydalanish imkoniyatlari asoslandi (2-jadval):

2-jadval

Qashqadaryo viloyati xizmatlar sektori: innovatsion-raqamli ehtiyojlar modeli¹

№	Ustuvor xizmat turi	Hududiy talab manbai	Iste'molchi segmenti	Raqamli yechim	Innovatsion vosita
1	Agroservis xizmatlari	Qishloq xo'jaligini yuqori ulushi	Fermerlar va klasterlar	AgroTech platforma	IoT sensor va dron monitoringi
2	Turizm va mehmonxona xizmati	Shahrisabz tarixi	Turistlar	Onlayn bronlashtirish	VR-tur va QR-gid
3	Logistika va transport xizmati	Eksport-import faolligi	Tadbirkorlar	GPS-treker	Smart logistika
4	Moliyaviy xizmatlar	Kichik biznes soni ko'payishi	Kichik biznes subyektlari	FinTech mobil ilovasi	Onlayn kredit skoringi
5	Ta'lim xizmatlari	Yoshlar ulushi yuqoriligi	Talaba va o'quvchilar	E-learning platformasi	Sun'iy intellekt test tizimi
6	Sog'liqni saqlash xizmati	Qishloq hududlariga egaligi	Aholi	Telemeditsina	Elektron tibbiy karta

Mazkur 2-jadvalga asosan, innovatsion-raqamli ehtiyojlar modeli o'z strukturasi ega bo'ladi. Bu borada ushbu model quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

- hududiy tahlil (resurslar, demografiya va infratuzilmani baholash);
- iste'molchi segmentatsiyasi (yosh, biznes, turist va fermer);
- raqamli transformatsiya (onlayn platformalar va mobil xizmatlar);
- innovatsion integratsiya (sun'iy intellekt, IoT, Big Data va VR texnologiyalari);

Mazkur model xizmatlarni an'anaviy shakldan raqamli ekotizimga o'tkazishni nazarda tutadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa shuki, viloyatda innovatsion va raqamli ehtiyojlar modeli xizmatlar sifatini oshirish, mijozlarga yaqinlashish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish, yangi ish o'rinlari yaratish va hudud iqtisodiy barqarorligini ta'minlash kabi chora-tadbirlarni belgilab beradi. Shular qatorida strategik taklif sifatida Qashqadaryo viloyati uchun eng maqbul model “agrar-turizm-logistika” raqamli klaster modelini taklif qilish mumkin. Bu model tarkibi “agroservis + logistika + moliya”, “turizm + mehmonxona + raqamli marketing” va “ta'lim + IT + startap markazlari” kabi unsurlar birlashtirilgan holda xizmatlar ekotizimi shakllantiriladi. Natijada, platforma xizmatlarga bo'lgan talabni prognozlashtirish, xizmat sifati monitoringi, mijozlar xatti-harakatini tahlil qilish hamda biznes subyektlar uchun personallashtirilgan tavsiyalar ishlab chiqish imkoni yaratiladi. Shunday ekan, Qashqadaryo viloyatida xizmatlar sektorini zamonaviy modellar asosida rivojlantirish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy yo'nalish bo'lib hisoblanadi. Unga xos bo'lgan, raqamli transformatsiya, klasterlash, smart service va FinTech modellari xizmatlar samaradorligini oshiradi, xarajatlarni kamaytiradi va aholi ehtiyojlariga tezkor javob berish imkonini beradi. Agar ushbu modellar kompleks ravishda joriy etilsa, YaHMda xizmatlar ulushi 8-10 foizga oshishi mumkin, yangi ish o'rinlari 15-20 mingtagacha yaratilishi mumkin, soliq tushumlari hajmi 25-30 foizga o'sishi mumkin hamda innovatsion faollik indeksi esa sezilarli darajada yaxshilanadi. Eng muhimi, xizmatlar sektorining raqamlashuvi hududiy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga, yoshlar bandligini ta'minlashga va tashqi investitsiyalarni jalb qilishga xizmat qiladi.

¹ Muallif ishlanmasi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- [1]. Матюшкина И.А. Современные тенденции развития сферы услуг. // Научный журнал «Экономика. Социология. Право», 2017, №1(5). - с. 23.
- [2]. Šajbidor M., Mikolasik M. (2023). Research on the Service Sector in the Modern Economy. In: Kryvinska N., Greguš M., Fedushko S. (eds) Developments in Information and Knowledge Management Systems for Business Applications. Studies in Systems, Decision and Control, vol 462. Springer, Cham.
- [3]. Зияева М.М. Республика минтақаларида хизматлар соҳасини ривожлантириш йўналишлари. // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий-электрон журнали, №6, ноябрь-декабрь, 2017. - 1 б.
- [4]. Хижняк А.Н., Леонова Ж.К. Оптимизационная модель развития сферы услуг. // Известия МГТУ «МАМИ», т.3, №2(14), 2012. - с. 179.
- [5]. Кудратов З.Г. Основные тенденции развития сферы услуг в Узбекистане. // Молодой ученый, 2016, №11 (115). - с. 791-793. URL: <https://moluch.ru/archive/115/30907>
- [6]. Rakhimov A., Uralov T. Modeling basis of the development of public service industries. // Наука и инновации в системе образования, 4(4), 2025. - с. 129-135. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/sies/article/view/82134>
- [7]. Semenov V.L., Zakharova A.N., Lavina T.A., Dulina G.S. Designing Innovative Business Model Of The Regional Service Sector. // Selection and peer-review under responsibility of the Organizing Committee of the conference. The European Proceedings of Social and Behavioural Sciences EpSBS, 2020.
- [8]. <https://www.vsemirnyjbank.org/ext/ru/home>

Ф.Ачилова	F.Achilova
Современные модели развития сектора услуг в регионе	Modern models of service sector development in the region
<p>Аннотация. В данной статье рассматриваются возможности применения современных моделей развития сектора услуг в регионе. Также сделаны выводы об эффективном использовании современных моделей развития сектора услуг в Кашкадарьинской области.</p> <p>Ключевые слова: регион, услуги, сектор услуг, модель, продукт, исследование, экономика.</p>	<p>Abstract. This article discusses the possibilities of applying modern models of service sector development in the region. Also, conclusions are drawn on the effective use of modern models of service sector development in the Kashkadarya region.</p> <p>Keywords: region, service, service sector, model, product, research, economy.</p>

Нажмиддин Раҳматуллаевич Абдувоҳидов – СамИСИ мустақил изланувчиси,
Самарқанд вилояти солиқ бошқармаси ходими

ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИДА СОХТА ИҚТИСОДИЁТНИНГ АЙРИМ КЎРИНИШЛАРИ ВА УНИ БАРТАРАФ ЭТИШНИНГ АМАЛИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ

<p>Аннотация. Мақола муаллифи томонидан хизмат кўрсатиш соҳасидаги субъектларда сотилган товар, бажарилган иш ва хизматлар ҳажмини кўшиб ёзиш яъни сохта иқтисодиётга йўл қўйилаётганлиги (Самарқанд вилоятидаги хўжалик юритувчи субъектлари мисолида) ҳолати ўрганилиб, унинг макроиқтисодий кўрсаткичларга таъсири тадқиқ этилган. Муаллиф томонидан расмий сектордаги сотилган товар, бажарилган иш ва хизматлар ҳажмини кўшиб ёзиш, яъни сохта иқтисодиётни бартараф этиш ва олдини олиш бўйича ўз амалий таклиф ва хулосалари баён этилган.</p> <p>Калит сўзлар: расмий сектор, яширин иқтисодиёт, сохта (қалбаки) иқтисодиёт, иқтисодиётда кўшиб ёзиш, солиқ ва статистик ҳисоботлар, рақамлаштириш, рақамли иқтисодиёт, ялпи ички маҳсулот (ЯИМ), ялпи ҳудудий маҳсулот (ЯҲМ).</p>
--

Кириш. Яширин иқтисодиётнинг намоён бўлишининг бир шакли бўлган *сохта* (қалбаки) иқтисодиёт ўз табиатига кўра жуда катта микдорда бюджет маблағларини

ISSN 2091-5187

☞ “SERVIS” ☞

Jurnal Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tahririyat
bo‘limida nashrga tayyorlandi.

06.03.2026 yilda terishga berildi. 19.03.2026 yilda bosishga ruxsat etildi. Ofset
bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84_{1/8}. “Times” garniturasini. Ofset bosma usuli.
Shartli bosma tabog‘i 15,4. Hisob-nashriyot
tabog‘i 14,37. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 0031A/26

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining
matbaa bo‘limida chop etildi.

Litsenziya № 025316.

Reestr № X-119112.

Manzil: Samarqand shahri, Shoxruh ko‘chasi, 60-uy.

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026.